

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

FALSAFA FANIDAN USLUBIY QO'LLANMA

Toshkent — 2025

Mazkur uslubiy qo'llanmada falsafa fanining mohiyati, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni, tarixiy va nazariy asoslari yoritilgan. Unda Sharq va G'arb falsafasi o'rtasidagi tafovutlar, ularning ijtimoiy va ilmiy taraqqiyotga qo'shgan hissassi ko'rib chiqiladi. Borliq va rivojlanish, bilish, jamiyat, tarix, madaniyat va sivilizatsiya, inson va qadriyatlar kabi asosiy falsafiy muammolar tahlil etilgan. Har bir mavzu doirasida nazariy yondashuvlar, asosiy tushunchalar, zamonaviy talqinlar va mantiqiy xulosalar berilgan. Uslubiy qo'llanma falsafa fanini chuqur o'rganishga qaratilgan bo'lib, oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan.

В данном методическом пособии освещаются сущность философии, её роль в жизни человека и общества, а также историко-теоретические основы философского знания. Рассматриваются особенности восточной и западной философии, их вклад в социальное и научное развитие. В центре внимания — философские проблемы бытия, развития, познания, общества, истории, цивилизации, культуры, человека и ценностей. В каждом разделе представлены теоретические подходы, ключевые понятия и современные интерпретации. Методическое пособие предназначено для студентов высших учебных заведений, изучающих философию на углублённом уровне.

This methodological guide provides an in-depth overview of the essence of philosophy and its significance in human and social development. It examines the core differences between Eastern and Western philosophy and their contributions to societal and scientific progress. Key philosophical themes such as ontology, development, epistemology, society, history, civilization, culture, human nature, and values are thoroughly analyzed. Each topic includes theoretical perspectives, essential concepts, and contemporary interpretations. The guide is designed for university students aiming to gain a comprehensive understanding of philosophical disciplines.

MUNDARIJA

KIRISH.....	2
1-MAVZU. FALSAFANING MOHIYATI VA JAMIYAT	
TARAQQIYOTIDAGI ROLI.....	8
2- MAVZU. SHARQ FALSAFASINING MOHIYATI VA IJTIMOIIY	
TARAQQIYOTDAGI ROLI	17
3-MAVZU. G‘ARB FALSAFASINING USTUVOR YO‘NALISHLARI VA	
ULARNING FAN TARAQQIYOTIGA TA’SIRI.....	23
4-MAVZU. BORLIQ FALSAFASI (ONTOLOGIYA).....	30
5-MAVZU. RIVOJLANISH FALSAFASI.....	38
6-MAVZU. BILISH FALSAFASI.....	46
7-MAVZU. JAMIYAT FALSAFASI.....	55
8-MAVZU. INSON FALSAFASI (FALSAFIY ANTROPOLOGIYA)	63
9-MAVZU. MANTIQ.....	71
10-MAVZU. ETIKA.....	79
NAZORAT SAVOLLARI.....	87
GLOSSARIY.....	90
ADABIYOTLAR RO‘YHATI.....	96

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ.....	2
1-ТЕМА. СУЩНОСТЬ ФИЛОСОФИИ И ЕЁ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА	8
2-ТЕМА. СУЩНОСТЬ ВОСТОЧНОЙ ФИЛОСОФИИ И ЕЁ РОЛЬ В СОЦИАЛЬНОМ РАЗВИТИИ.....	17
3-ТЕМА. ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЗАПАДНОЙ ФИЛОСОФИИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ НАУКИ	23
4-ТЕМА. ФИЛОСОФИЯ БЫТИЯ (ОНТОЛОГИЯ)	30
5-ТЕМА. ФИЛОСОФИЯ РАЗВИТИЯ	38
6-ТЕМА. ФИЛОСОФИЯ ПОЗНАНИЯ	46
7-ТЕМА. ФИЛОСОФИЯ ОБЩЕСТВА	55
8-ТЕМА. ФИЛОСОФИЯ ЧЕЛОВЕКА (ФИЛОСОФСКАЯ АНТРОПОЛОГИЯ).....	63
9-ТЕМА. ЛОГИКА.....	71
10-ТЕМА. ЭТИКА.....	79
КОНТРОЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ.....	87
ГЛОССАРИЙ.....	90
СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ.....	96

CONTENTS

INTRODUCTION.....	2
1-TOPIC. ESSENCE OF PHILOSOPHY AND ITS ROLE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY	8
2-TOPIC. ESSENCE OF EASTERN PHILOSOPHY AND ITS ROLE IN SOCIAL DEVELOPMENT	17
3-TOPIC. PRIORITY DIRECTIONS OF WESTERN PHILOSOPHY AND THEIR IMPACT ON SCIENTIFIC DEVELOPMENT.....	23
4-TOPIC. PHILOSOPHY OF BEING (ONTOLOGY).....	30
5-TOPIC. PHILOSOPHY OF DEVELOPMENT.....	38
6-TOPIC. PHILOSOPHY OF KNOWLEDGE.....	46
7-TOPIC. PHILOSOPHY OF SOCIETY.....	55
8-TOPIC. PHILOSOPHY OF HUMAN (PHILOSOPHICAL ANTHROPOLOGY).....	63
9-TOPIC. LOGIC.....	71
10-TOPIC. ETHICS.....	79
CONTROL QUESTIONS.....	87
GLOSSARY.....	90
LIST OF LITERATURE.....	96

KBK
K–

B.T.Kuyliyev: Falsafa: uslubiy qo'llanma. – T.: Toshkent davlat tibbiyot universiteti, 2025. – 96 b.

Mazkur uslubiy qo'llanma falsafa fanining asosiy nazariy masalalarini yoritishga qaratilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun mo'ljallangan. Qo'llanma orqali talabalar falsafaning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi o'rni va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida fundamental bilimlarga ega bo'ladilar. Ayniqsa, Sharq va G'arb falsafasining shakllanishi, tarixiy va madaniy sharoitlari, ustuvor yo'nalishlari, ularning ijtimoiy va ilmiy tafakkurga bo'lgan ta'siri chuqur tahlil etiladi. Uslubiy qo'llanmaning muhim qismlaridan biri sifatida borliq falsafasi (ontologiya), rivojlanish jarayonlarini falsafiy anglash, bilish muammolari, jamiyatning falsafiy talqini, tarix va sivilizatsiyaning falsafiy bahosi, madaniyat bilan aloqasi yoritilgan. Shuningdek, inson tabiati, uning jamiyatdagi o'rni, ong va faoliyat muammolari falsafiy antropologiya nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Qadriyatlar falsafasiga oid bobda esa axloqiy, estetik va ijtimoiy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, ularning shakllanishi va o'zgarishi tahlil qilinadi. Uslubiy qo'llanma har bir mavzuni o'zaro mantiqiy bog'liqlikda yoritib, talabalarni mustaqil fikrlashga, nazariy bilimlarni amaliy hayot bilan uyg'unlashtirishga yo'naltiradi. Falsafa fanini tizimli o'rganishga xizmat qiluvchi mazkur qo'llanma talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish, fanlararo yondashuvni shakllantirish hamda ularni mustaqil izlanishga undashga qaratilgan.

Falsafa: **Uslubiy qo'llanma.** – T.: **Toshkent davlat tibbiyot universiteti**, 2025. – 96 b.

Mas'ul muharir:

f.f.n., professor N.E.Muxamadiyev

Taqrizchilar:

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent X.I.Toshov

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent T.N.Xojiyev

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti Ilmiy kengashida ma'qullangan. 2025-yil
_____ -sonli bayonnoma.*

© Toshkent davlat tibbiyot universiteti, 2025

1-MAVZU: FALSAFANING MOHIYATI VA JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI ROLI

REJA:

1. Falsafa fanining predmeti, muammolar doirasi va vazifasi.
2. Dunyoqarash tushunchasi va uning xususiyatlari.
3. Diniy dunyoqarash.
4. Falsafiy dunyoqarash.

Tayanch iboralar

Dunyoqarash, mifologik dunyoqarash, diniy dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash, inson, falsafaning predmeti, falsafiy muammo, falsafiy yo'nalishlar, tafakkur.



Agar falsafa so'zining kelib chiqishi (etimologiyasi)ga e'tibor bersak, uning yunon tilidagi tarjimasi «donolikni sevaman» ma'nosini anglatadi. *Diogen Laertskiy* (eramiz II asri oxiri - III asr boshlari) so'zlariga qaraganda, o'zini birinchi marta faylasuf deb atagan kishi – yunon mutafakkiri va olimi *Pifagordir*. Faylasuflarning qanday ekanliklariga ta'rif berib, u shunday degan: «Hayot o'yinga o'xshaydi: ba'zilar unga musobaqalashgani kelsa, ayrimlar savdolashgani, eng baxtlilari esa tomosha qilgani keladilar; hayotda ham xuddi shunday, ba'zilar qullar kabi shuhrat va boylikka o'ch bo'lib dunyoga keladi, vaholanki faylasuflar - *faqat haqiqat uchun keladi*»¹.

Bugungi kunda haqiqatni izlash faqat falsafaga taalluqli degan fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Faylasuf bo'lmasdan ham fizika, tibbiyot, badiiy ijodda yoki kundalik hayotda bilim va haqiqatga intilish mumkin. Biroq haqiqatni ongli izlash aynan falsafadan boshlangan.

“Falsafa nima?” degan savolga javob izlash oson emas. Har birimiz u yoki bu matn, yo nutq falsafiy yohud falsafiy emasligini ichki sezgi bilan his etamiz. Ammo falsafaga qat'iy ilmiy ta'rif berish juda mushkul. Bunga urinib ko'rishning o'zi kifoya. Falsafaga tegishli bo'lmagan narsani aniqlash osonroq. Masalan,

¹ Диоген Лаэртский. О жизни, учениях и изречениях знаменитых философов. М., 1979. 334-б.

falsafa DNK tuzilishini aniqlash bilan shug'ullanmaydi, differensial tenglamalarni yechmaydi, kimyoviy reaksiyalarni o'rganmaydi, yer qobig'i harakatini tadqiq etmaydi va hokazolar.

Ba'zi falsafiy tizimlarda falsafa oliy bosh ibtido yoki birinchi sabab to'g'risidagi fan deb ta'riflanadi. Masalan, qadimgi yunon faylasufi Arastu ta'limotida, u "barcha mavjudotning ibtidosi va sabablari to'g'risidagi fan" deyilgan bo'lsa, markaziy osiyolik mutafakkir Abu Ali Ibn Sino falsafani "mutlaq borliq to'g'risidagi oliy fan" deb ta'riflagan. Boshqa yo'nalishlarda falsafaning bosh sababi birinchi ibtidolarni bilish ekanligi umuman rad etiladi, masalan, o'rta asr ilohiyotchisi al-G'azzoliy o'zining "Faylasuflarni rad etish" nomli maxsus asarini shu mavzuga bag'ishlagan.

Ba'zi ta'limotlarda falsafa "to'g'ri fikrlash orqali erishilgan bilim" (T.Gobbs) umuman, "fanlarni ko'rib muhokama qiluvchi" (G.V.Xegel) deb keng tasavvur qilinsa, boshqalarida tor ma'noda, masalan, "fikrning mantiqiy oydinlashuvi" (L.Vitgenshteyn) yoki "umummajburiy qadriyatlar to'g'risidagi fan" (V.Vindelband) sifatida tushuniladi. Odatda, falsafaning u yoki bu ta'rifi umuman falsafani emas, balki tegishli faylasuflarning o'z nazariyalarini belgilashi hisoblanadi, garchand, ko'pchilik faylasuflar aynan o'z falsafiy qarashlarinigina haqiqiy (yoki chinakam) deb o'ylaydilar.

Umuman falsafani ifoda qilish mumkinmi? Nemis faylasufi G.V.Xegel (1770-1831) muayyan falsafa yagona jahon falsafasining - tarixiy bosqichlari, uni shakllanish onlari va bir butun rivojlanishining mohiyatidir, deb hisoblagan. Boshqa faylasuflar tasavvuriga ko'ra tarixiy-falsafiy jarayon - bu muayyan falsafiy ta'limotlar tarixidir, falsafa tarixi esa qandaydir yagona va rivojlanuvchi ta'limot sifatida mavjud emas.

Falsafa fanining predmeti mazmun va ilm fan madaniyat taraqqiyotidagi o‘rni qismi bo‘yicha mavzuni o‘zlashtirishga yordam beruvchi mashqlar

**1-MASHQ
JADVALNI MAVZU
TAFSILOTLARIGA OID
MA’LUMOTLAR BILAN
TO’LDIRING**

DUNYOQARASHNING TUZULISHI (1.1)

DUNYONI SEZISH	DUNYONI TASAVVUR QILISH	DUNYONI TUSHUNISH

DUNYOQARASHNING TARIXIY SHAKILLARI (1.2)


MIFALOGIK DUNYOQARASH	DINIY DUNYOQARASH	FALSAFIY DUNYOQARASH	ILMIY DUNYOQARASH

FALSAFANING ASOSIY YO'NALISHLARI (1.3)

ONTOLOGIYA	GNOSIOLOGIYA	FALSAFIY ONTROPOLO GIYA	MANTIQ	ETIKA ESTETIKA

2-MASHQ

BERILGAN TA'RIFLARNI MOS KELUVCHI TUSHUNCHALAR BILAN TULDIRING





IJODIY ISH UCHUN TOPSHIRIQ



ESSE UCHUN MAVZULAR

**Falsafaning tuzulmasi va
funktsiyalari**

**Dunyoqarashning tarixiy
shakllari**

**Falsafa, fan va dinning o‘zaro
mutanosibligi**

TESTLAR

1. Falsafa soʻzining lugʻaviy maʼnosi qanday?

- a) Haqiqat izlash
- b) Oʻrganish sanʼati
- c) Donolikni sevish
- d) Ilmiy fikrlash

2. Falsafa nimani oʻrganadi?

- a) Texnik jarayonlarni
- b) Real faktlar statistikasi
- c) Inson, borliq va tafakkur haqidagi umumiy qonuniyatlarni
- d) Tabiiy fanlarni

3. Quyidagi qaysi olim “falsafa — fanlar otasidir” degan?

- a) Dekart
- b) Aristotel
- c) Kant
- d) Nyuton

4. Falsafaning asosiy vazifalaridan biri bu —

- a) Texnologiya yaratish
- b) Statistik maʼlumotlar toʻplash
- c) Inson va jamiyat hayotining maʼnosini tushuntirish
- d) Fizik qonunlarni tahlil qilish

5. Falsafa qachon mustaqil fan sifatida shakllangan deb hisoblanadi?

- a) Oʻrta asrlarda
- b) Yangi davrda
- c) Antik davrda
- d) Hozirgi davrda

6. Falsafaning jamiyat taraqqiyotidagi asosiy roli nimada namoyon boʻladi?

- a) Moddiy ishlab chiqarishni tashkil qilishda
- b) Axloqiy, mafkuraviy va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda
- c) Faoliyat rejasini tuzishda
- d) Qonun loyihalari yozishda

7. Falsafa qanday yondashuv asosida rivojlanadi?

- a) Faqat empirik kuzatuvlar asosida
- b) Sanʼat orqali
- c) Tanqidiy va mantiqiy fikrlash orqali
- d) Rasmiy buyruqlar orqali

8. Falsafaning asosiy boʻlimlaridan biri — ontologiya neni oʻrganadi?

- a) Bilish jarayonini
- b) Axloqiy qadriyatlarni
- c) Borliq mohiyatini
- d) Til meʼyorlarini

9. Falsafaning ijtimoiy ahamiyati nimada?

- a) Iqtisodiy rivojlanishni rejalashtiradi
- b) Jamiyatlardagi ma'naviy qadriyatlarni asoslaydi
- c) Faqat tarixni o'rgatadi
- d) Boshqaruv tizimlarini belgilaydi

10. Quyidagi qaysi fanlar falsafaga yaqin turadi?

- a) Matematika , kimyo
- b) Fizika , astronomiya
- c) Sotsiologiya , psixologiya , siyosatshunoslik
- d) Sport va tibbiyot


2-MAVZU: SHARQ FALSAFASINING MOHIYATI VA IJTIMOIIY TARAQQIYOTDAGI ROLI

REJA:

1. Qadimgi Sharqda asotiriy tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo'lishi.
2. Misr va Bobilda olam va odamning paydo bo'lishi haqidagi mifologik tasavvurlar.
3. Xitoy falsafasi: Konfutsiychilik, daoizm g'oyalari.
4. Qadimgi Sharq falsafasining jamiyat va tafakkur rivojiga ta'siri.

Tayanch iboralar

Sharq falsafasi, Hind falsafasi, Sankhya, Yoga, Vaysheshika, Nyaya, Mimansa, Vedalar, Upanishadlar, Buddaviylik, Konfutsiychilik, Daoizm, ontologiya, karma, dao (yo'l).



Qadimgi Sharq falsafasi insoniyat tafakkurining dastlabki bosqichlarida shakllangan bo'lib, u diniy-mifologik qarashlar bilan chambarchas bog'liq edi. Bu davrdagi falsafiy tafakkur ko'proq amaliy hayot, axloq, tartib, taqdir va inson burchi kabi masalalarga yo'naltirilgan bo'lib, mutlaq tabiat qonunlariga emas, balki ilohiy va axloqiy mezonlarga asoslangan.

Hind falsafasi qadimgi Vedalar va Upanishadlar asarlarida o'z ifodasini topgan. Unda mavjudotning boshlanishi, ilohiy mohiyat, ruh (atman) va oliy haqiqat (brahman) o'rtasidagi aloqalar talqin etiladi. Sanxya, Yoga, Nyaya, Vedanta, Buddaviylik kabi maktablar Hind falsafasining turli yo'nalishlarini tashkil etadi. Karma, samsara va moksha tushunchalari inson hayotining maqsadi va mukammallikka erishish yo'llarini izohlaydi.

Xitoy falsafasi jamiyatdagi tartib, axloqiy fazilatlar va insonning jamiyatdagi o'rniga katta e'tibor bergan. Konfutsiychilikda insoniylik (jen), ijtimoiy tartib (li) va ota-bobolarga hurmat asosiy tushunchalardir. Daoizm esa tabiat bilan uyg'unlik,

passivlik, ichki sokinlik va “dao” (yo‘l) tushunchalarini ilgari suradi. Bu oqimlar Xitoy jamiyatining siyosiy va madaniy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Qadimgi Sharq falsafasi jamiyatda axloqiy normalar, davlat boshqaruvi, shaxsiy kamolot va ijtimoiy tartib kabi tushunchalarning shakllanishiga asos bo‘lgan. U nafaqat o‘z davrining madaniy-ma’naviy hayotiga, balki keyinchalik G‘arb va Islom falsafasiga ham muayyan ta’sir ko‘rsatgan. Sharq tafakkuridagi muvozanat, ichki uyg‘unlik va axloqiy komillik g‘oyalari hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Qadimgi Sharq falsafasi inson tafakkurining ilk bosqichlarini aks ettirgan bo‘lib, uning markazida axloq, tartib, hayot ma’nosi va insonning jamiyatdagi o‘rni kabi masalalar turadi. Hind va Xitoy falsafalarida ruhiy kamolot, tabiiy uyg‘unlik va axloqiy me’yorlar ustuvor o‘rin egallaydi. Bu qarashlar ming yillar davomida Sharq jamiyatlarining ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotida chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Qadimgi Sharq tafakkuri bugungi kunda ham o‘z falsafiy va ma’naviy ahamiyatini saqlab qolgan bo‘lib, insonni o‘zini anglashi va jamiyatda tartibli hayot kechirishga o‘rgatadi.

**Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari qismi bo'yicha mavzuni
o'zlashtirishga yordam beruvchi mashqlar**



1-MASHQ
JADVALNI MAVZU
TAFSILOTLARIGA OID
MA'LUMOTLAR BILAN
TO'LDIRING

QADIMGI SHARQDA ASOTIRIY TASAVVURLAR VA FALSAFIY BILIMLARNING PAYDO BO‘LISHI. (1.1)

QADIMGI MISIR	QADIMGI XINDISTON	QADIMGI XITOIY

QADIMGI XIND FALSAFIY MAKTABLARI (1.2)

SANKXYA	YOGA	VAYSHESHIKA	NYAYA	MIMANSA	VEDANTA

QADIMGI XITOIY FALSAFASI (1.3)

KONSUTSIYICILIK	DAOSIZM	LAO SZI	LEGALIZM

TESTLAR

1. Sharq falsafasiga xos bo'lgan asosiy xususiyat qaysi?

- a) Ilmiy tajribaning ustuvorligi
- b) Diniy -mistik yo'nalish kuchliligi
- c) Liberal demokratiya g'oyalari
- d) Faqat axloqiy qadriyatlar

2. Konfutsiy kim bo'lgan?

- a) Antik Yunon faylasufi
- b) Hind mistigi
- c) Xitoy axloqshunos -faylasufi
- d) Arab tarixchisi

3. "Dao" tushunchasi qaysi Sharq maktabiga tegishli?

- a) Buddizm
- b) Konfutsiylik
- c) Daoizm
- d) Islam falsafasi

4. Buddizm g'oyalarining asoschisikim hisoblanadi?

- a) Konfutsiy
- b) Zardusht
- c) Sokrat
- d) Siddhartha Gautama (Buddha)

5. Sharq falsafasida insonning ichki dunyosi qanday yo'l bilan mukammallikka yetadi?

- a) Ilmiy izlanish bilan
- b) Qonunlar orqali
- c) Meditatsiya, axloqiy poklanish va o'zini anglash orqali
- d) Jang va kuch orqali

6. Zardushtiylik din-falsafasining markaziy g'oyasi nima?

- a) Jaholatga qarshi kurash
- b) Yaxshilik va yomonlik kurashi
- c) Hukmronlik g'oyasi
- d) Davlat tuzilmasi

7. Hind falsafasi asosida shakllangan asosiy g'oya nima?

- a) Sotsial adolat
- b) Materializm
- c) Karma va reinkarnatsiya
- d) Inson huquqlari

8. Sharq falsafasi asosan qanday maqsadga xizmat qiladi?

- a) Jamiyatni texnik jihatdan rivojlantirishga
- b) Insonning ma'naviy komilligini ta'minlashga
- c) Siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritishga
- d) Ishlab chiqarish tizimlarini takomillashtirishga

9. Konfutsiy ta'limotida qanday qadriyat ustuvor hisoblanadi?

- a) Tashqi kuch va hokimiyat
- b) Raqobat va erkinlik
- c) Axloq, tartib-intizom va ota-onaga hurmat
- d) Tabiat va jamiyat uyg'unligi

10. Sharq falsafasi ijtimoiy taraqqiyotga qanday yo'sinda ta'sir ko'rsatadi?

- a) Yangi texnika vositalarini ishlab chiqish orqali
- b) Davlatlararo munosabatlarni tartibga solish orqali
- c) Ma'naviy qadriyatlar, sabr-toqat va axloqiy fazilatlar orqali
- d) Harbiy kuchlarni ko'paytirish orqali


3-MAVZU: G'ARB FALSAFASINING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING FAN TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

REJA:

1. Qadimgi Yunoniston va Rim falsafasi (Milet va Eley maktablari, sofistlar falsafasi)
2. O'rta asrlar va Yangi davr Yevropa falsafasi (gnostiklar, dualizm, apologetlar, sxolastika, patristika).
3. Nemis klassik falsafasi (Gegel va Kant misolida).
4. Hozirgi zamon falsafasi va uning asosiy oqimlari (neokantchilik, pozitivizm, strukturalizm va ekzistensial falsafa).

Tayanch iboralar

Milet maktabi, Eley maktabi, Sofistlar, gnostitsizm, apologetlar, sxolastika, patristika, empirizm va ratsionalizm, Hegel dialektikasi, absolyut ruh, nemis klassik falsafasi, pozitivizm, neokantchilik, ekzistensializm, strukturalizm.



G'arb falsafasi inson tafakkurining tarixiy rivojlanishida chuqur iz qoldirgan bo'lib, u fanning shakllanishi, metodologik asoslari va dunyoni anglash vositalarining rivojida muhim rol o'ynagan. U turli tarixiy davrlarda o'zining ustuvor yo'nalishlari orqali jamiyat, ong, borliq, bilish va inson muammolarini chuqur tahlil qilib bergan.

G'arb falsafasining ildizlari qadimgi Yunoniston va Rimga borib taqaladi. Milet maktabi vakillari — Fales, Anaksimandr, Anaksimen — borliqning asl mohiyatini tabiiy unsurlar orqali tushuntirishga harakat qildilar. Eley maktabining vakili Parmenid borliqni o'zgarmas va abadiy deb bilgan bo'lsa, Zenon mantiqiy paradokslari bilan mashhur bo'ldi. Sofistlar esa (masalan, Protagor) insonni barcha narsalarning mezoni sifatida talqin qildilar va relativizm g'oyasini ilgari surdilar. Bu davrdagi falsafa birinchi marta tabiat va jamiyat hodisalarini ilohiy asoslardan ajratib, ratsionallik asosida tushuntirishga urindi. Ayniqsa, Suqrot, Platon, Aristotel kabi faylasuflar falsafani mantiq, axloq, siyosat va bilish nazariyasi sohalariga ajratib, keyingi fanning poydevorini qo'ydilar.

O'rta asr Yevropasida falsafa asosan diniy asosda rivojlandi. Gnostiklar ruhiy bilimni ilohiy haqiqatga yetishish vositasi deb bilganlar. Apologetlar esa nasroniy aqidalarini falsafiy jihatdan asoslashga harakat qildilar. Sxolastika va patristika oqimlari orqali Aristotel falsafasi ilohiy aqidalar bilan uyg'unlashtirildi. Masalan, Avreliy Avgustin va Foma Akvinskiy falsafani teologiyaning xizmatiga qo'ydi. Yangi davrda esa inson tafakkurining markazga chiqishi kuzatildi. Dekart, Spinoza, Lok, Gobbs, Berkli, Yum, Nyuton, Galiley kabi mutafakkirlar tabiatni ilmiy asosda bilish metodlarini rivojlantirdilar. Empirizm va ratsionalizm qarama-qarshiligi bu davr falsafasining asosiy muammolaridan biri bo'ldi. Ilmiy tafakkurda tajriba va mantiqiy tahlil usullari ustuvor ahamiyat kasb etdi.

XVIII–XIX asrlarda G'arb falsafasi o'zining cho'qqisiga nemis klassik falsafasi orqali chiqdi. Immanuil Kant o'zining "Tanqidiy falsafa"si orqali bilish nazariyasida aql va tajriba o'rtasidagi muvozanatni tushuntirdi. U aqlning chegaralarini aniqlash orqali metafizikani tanqid qildi va zamonaviy falsafaga asos soldi. Georg Vilgelm Fridrix Gegel esa tarixiy dialektika, absolyut ruh va taraqqiyot g'oyalarini ilgari surdi. Uning nazarida har bir narsa qarama-qarshiliklar kurashi orqali rivojlanadi. Gegel falsafasi tarix, davlat, madaniyat va din sohalarida izchil tizim yaratishga harakat qildi. Uning g'oyalari keyinchalik Marksizmga katta ta'sir ko'rsatdi.

XX-asr falsafasi ko'plab yangi oqimlar va metodologik yondashuvlar bilan ajralib turadi. Neokantchilik Kant g'oyalarini yangicha talqin qilib, bilishning subyektiv va obyektiv tomonlarini muvofiqlashtirishga urindi. Pozitivizm esa faqat tajriba va ilmiy metod orqali bilim olish mumkinligini ilgari surdi (A.Kont, R.Karnap). Strukturalizm (K.Levi-Stross, M.Fuko) inson tafakkurini ijtimoiy va madaniy tuzilmalar orqali anglashga harakat qildi. Ekzistensializm (S.Kierkegor, J.-P.Sartr, M.Xaydegger) esa inson erki, tanlov, yolg'izlik va hayotning ma'nosi kabi mavzularni markazga qo'ydi. Bugungi kunda g'arb falsafasining asosiy xususiyati — ko'p yo'nalishlilik, plyuralizm va metodologik xilma-xillikdir. Falsafa nafaqat ilmiy tafakkurga, balki texnologiya, axloq, siyosat va madaniyat sohalariga ham chuqur ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda.

G'arb falsafasi tarixiy bosqichlar davomida jamiyat, inson, bilim va tabiat haqidagi qarashlarni boyitdi. Har bir davr o'zining falsafiy yo'nalishi orqali fan va tafakkur rivojiga turtki berdi. Ayniqsa, bilish metodlari, mantiqiy tahlil va nazariy tizimlarning shakllanishida G'arb falsafasining roli beqiyosdir. Uning tarixi falsafaning amaliyot bilan qanday uyg'unlashganini va fan taraqqiyotiga qanday xizmat qilganini yaqqol namoyon etadi.

G'arb falsafasining ustuvor yo'nalishlari va ularning fan taraqqiyotiga ta'siri qismi bo'yicha mavzuni o'zlashtirishga yordam beruvchi mashqlar

QADIMGI YUNON-RIM FALSAFIY MAKTABLARI (1.1)

MILET MAKTABI	ELEY MAKTABI	SAFISTLAR MAKTABI	STOIKLAR MAKTABI

O'RTA ASRLAR G'ARB FALSAFASI RIVOJI BOSQICHLARI (1.2)

PATRISTIKA	APOLOGETIKA	SXOLASTIKA

YANGI DAVR FALSAFASI (1.3)

FRENSIS BEKON	RENE DEKARD	VILGELM LEYBNITS	TOMS GOBBS



ENG YANGI DAVR FALSAFASI (1.4)

POZITIVIZM	EKZISTENSIALIZM	PRAGMATIZM	NEOPOZITIVIZM



**IJODIY ISH UCHUN
TOPSHIRIQ**

ESSE UCHUN MAVZULAR

SXOLASTIKA

POZITIVIZM

EKZISTENSIALIZM

TESTLAR

1. G'arb falsafasi qachon va qayerda shakllangan?

- a) Qadimgi Misrda
- b) Qadimgi Hindistonda
- c) Qadimgi Yunonistonda
- d) O'rta Osiyoda

2. "Meno'ylayapman , de mak mavjudman " degan ibora kimga tegishli?

- a) I. Kant
- b) R. Dekart
- c) F. Nyutn
- d) T. Gobbs

3. Antik davr Yunon falsafasining vakillari qaysilar?

- a) Foma Akvinskiy , Avgustin
- b) Konfutsiy , Lao Tszы
- c) Suqrot , Aflotun , Aristotel
- d) I. Kant, G. Gegel

4. Sxolastika oqimi qaysi davrga tegishli?

- a) Antik davr
- b) Uyg'onish davri
- c) O'rta asrlar
- d) Hozirgi zamon

5. Kant falsafasining markaziy tushunchasi nima?

- a) Ruh va tana qarama-qarshiligi
- b) Bilish chegaralari va tajriba asoslari
- c) Sadoqat va halollik
- d) Siyosiy erkinliklar

6. G'arb falsafasining ilm-fanga ta'siri qanday namoyon bo'lgan?

- a) Faqat diniy yo'nalishda
- b) Tabiat hodisalarini sehr bilan tushuntirishda
- c) Tajriba, aql va ilmiy yondashuvni asoslashda
- d) Faqat insonparvarlikni targ'ib etishda

7. "Dialektika" tushunchasini falsafaga kim kiritgan?

- a) Suqrot
- b) I. Kant
- c) Aflotun
- d) G. Gegel

8. Ekzistensializm oqimining asoschilari kimlar?

- a) K. Marks va F. Engels
- b) D. Yuym va J. Lokk
- c) S. Kyerkegor, J.P. Sartr, M. Xaydegger
- d) R. Dekart va B. Spinoza

9. Pozitivizm oqimi nima bilan ajralib turadi?

- a) Mistika va diniy g'oyalarga tayanishi
- b) Faqat axloqiy masalalarni ko'tarishi
- c) Ilm-fanni yagona bilim manbai deb bilishi
- d) Tabiat va ruhiyatni qarama-qarshi qo'yishi

10. Strukturallik va postmodernizm qaysi davrga tegishli?

- a) Antik davrga
- b) O'rta asrlarga
- c) Yangi davrga
- d) Hozirgi zamon falsafasiga

4-MAVZU: BORLIQ FALSAFASI (ONTOLOGIYA)

REJA:

1. Borliq tushunchasi va uning turlari.
2. Substantsiya va materiya, ularning o'zaro aloqadorligi.
3. Harakat va rivojlanish tushunchasi. Harakatning asosiy shakllari.
4. Borliqning fazo va vaqtda mavjudligi.
5. Tabiat - borliqning ajralmas qismi.

Tayanch iboralar

Borliq, aktual va potensial borliq, real va virtual borliq, tabiiy va ijtimoiy borliq, inson borlig'i, ma'naviy borliq, sotsial borliq, monizm, dualizm, plyuralizm.



Falsafa fanining borliq haqidagi masalalarni o'rganuvchi qismi *ontologiya* deb ataladi. Ontologiya so'zi yunoncha - *ontos* (mavjudlik) va *logos* (ta'limot) so'zlarining birikmasidan tashkil topgan bo'lib, "mavjudlik haqidagi ta'limot", ya'ni borliq haqidagi fan ma'nosini ifodalaydi. Bu atama fan tarixida birinchi bor 1613-yili nemis olimi R.Gokleniusning "Falsafa lug'ati"²da, so'ngra, Xristian Volf (1679–1754) ning falsafaga oid darsligida ishlatilgan.

Falsafa o'rganadigan qaysi bir masalani olmaylik, u borliq muammosi bilan bog'liq ekanligini ko'ramiz. Haqiqatdan ham, borliq, unga munosabat masalasi falsafiy qarashlarda markaziy o'rinni tashkil qiladi, chunki, borliq muammosi falsafadagi har qanday dunyoqarash va metodologik muammolarning asosi hisoblanadi.

Borliq haqidagi falsafiy munozaralar falsafa tarixida muhim dunyoqarash muammosi sifatida qadimdan davom etib keladi. Kishilar qadimdan o'zlarini qurshab turgan tabiat va jamiyat, inson va insoniyat haqida o'ylar ekan, atrofida sodir bo'lib turgan narsalar va xodisalarni, o'zgarishlarni kuzatishgan. Ba'zi narsalar hozir mavjud, keyinchalik esa yo'qolib ketadi, kecha yo'q bo'lgan ba'zi

² Goklenius R. Lexicon philosophicum. Francofurti, 1613.

narsalar esa bugun paydo bo‘ladi. Shular asosida kishilarda mavjudlik va yo‘qlik haqida tasavvurlar, qarashlar vujudga kelgan.

Kishilar o‘zlarining ham dunyoga kelishi (tug‘ilishi), yashashi va nihoyat vafot etishi (o‘lishi), “yo‘qlikka” aylanishi haqida o‘ylay boshlashadi. Shu asosda kishilarning “bu dunyo” va “u dunyo” (narigi dunyo), ya’ni odamning vafotidan so‘ng uning ruhi ko‘chib o‘tadigan dunyolar haqidagi tasavvurlari paydo bo‘lgan. Kishilar o‘zarining kundalik tajribalari asosida atrofidagi dunyoning hozir mavjudligi, o‘zlari tug‘ilmasdan ilgari ham mavjud bo‘lganligiga va keyinchalik ham mavjud bo‘lib qolishiga ishonishgan. Shu tarzda ularda “borliq” va “yo‘qlik” haqida tasavvurlar shakllangan.

Borliq falsafasi (ontologiya) qismi bo‘yicha mavzuni o‘zlashtirishga yordam beruvchi mashqlar



1-MASHQ

JADVALNI MAVZU TAFSILOTLARIGA OID MA’LUMOTLAR BILAN TO‘LDIRING

BORLIQ SHAKLLARI (1.1)

AKTUAL VA POTENSIAL BORLIQ	REAL VA VIRTUAL BORLIQ	TABIY VA IJTIMOY BORLIQ

BORLIQ SHAKLLARI (1.2)

INSON BORLIG'I	MA'NAVY BORLIQ	SOTSIAL BORLIQ




BORLIQ HAQIDAGI ASOSIY KONSEPSIYALAR (1.3)

MONIZM	DUALIZM	PLYURALIZM



2-MASHQ

BERILGAN TA'RIFLARNI MOS KELUVCHI TUSHUNCHALAR BILAN TO'LDIRING



..... ilgari mavjud bo'lgan, hozir mavjud va kelajakda ham mavjud bo'ladigan ob'ektiv va sub'ektiv reallikni o'ziga qamrab oladi.

..... borliq, tabiat, jamiyat, inson va dunyodagi barcha narsa va xodisalarning asosida yotuvchi moddiy yoki ruhiy mohiyat.

..... borliq borliqning ayni paytda va shu joydagi voqelikda namoyen bo'lib turgan va shu voqelik bilan aloqadorlikdagi qismi.



IJODIY ISH UCHUN TOPSHIRIQ



ESSE UCHUN MAVZULAR

BORLIQ HAQIDAGI ASOSIY KONSEPSIYALAR

HARAKAT

FAZO VA VAQT

TESTLAR

1. Ontologiya nima?

- a) Bilish nazariyasidir
- b) Qadriyatlar haqidagi ta'limot
- c) Borliq, mavjudlik haqidagi falsafiy ta'limot
- d) Axloqiy tamoyillar tizimi

2. "Borliq bir va abadiydir" degan fikr qaysi qadimgi faylasufga tegishli?

- a) Suqrot
- b) Geraqlit
- c) Parmenid
- d) Aflotun

3. Quyidagilardan qaysi biri borliqning shakllaridan biri emas?

- a) Moddiy borliq
- b) G'oyaviy borliq
- c) Virtual borliq
- d) Astronomik borliq

4. Geraklitning borliqqa oid asosiy g'oyasi nima?

- a) Harakat mavjud emas
- b) Hammasi suvdan paydo bo'lgan
- c) Har bir narsa oqimda, doimiy o'zgarishda
- d) Faqat ruhiy mavjudot muhim

5. "Dunyo g'oyalar olami va jismlar olamidan iborat" degan qarash kimga tegishli?

- a) Aristotel
- b) Aflotun
- c) G. Hegel
- d) F. Nyuton

6. Ontologiya fan sifatida qaysi masalani o'rganadi?

- a) Bilish jarayoni va tafakkur
- b) Borliqning mohiyati, shakllari va qonuniyatlari
- c) Tarixiy rivojlanish
- d) Axloqiy qadriyatlar

7. Aristotel borliqni qanday tushungan?

- a) Unga ko'ra borliq ruhiy narsa
- b) Borliq — shakl va modda birligi
- c) Borliq — faqat ilohiy kuch
- d) Borliq — vaqtinchalik tasavvur

8. Quyidagi borliq shakllaridan qaysi biri inson tafakkuriga bog'liq?

- a) Moddiy borliq
- b) Ruhiy borliq
- c) Biologik borliq
- d) Kosmik borliq

9. Materializm nuqtayi nazaridan borliq qanday tushuniladi?

- a) Borliq — bu ilohiy iroda
- b) Borliq — bu inson tasavvuri
- c) Borliq — bu ong mahsuli
- d) Borliq — bu moddiy mavjudlik

10. Idealizm nazariyasiga ko‘ra borliq nima?

- a) Moddiy asosga ega
- b) Mustaqil mavjudlikka ega bo‘lmagan narsa
- c) Ong va g‘oyaning mahsuli
- d) Faqat fizik qonunlarga asoslangan

5-MAVZU. RIVOJLANISH FALSAFASI

REJA:

1. Qonun tushunchasi va ularning turlari.
2. Falsafaning asosiy qonunlari (qarama-qarshiklar birligi va kurashi qonuni, miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni va inkorni inkor qonuni).
3. Kategoriya tushunchasi va ularning turlari (falsafa va fan kategoriyalarining turlari).

Tayanch iboralar

Dialektika, qonun tushunchasi, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, miqdor va sifat o'zgarishi, inkorni inkor qonuni, harakat va rivojlanish, kategoriya, zarurat va tasodif, sabab va oqibat.



Qonun tushunchasi va qonunlarning turlari. Falsafada qonun — bu hodisalar o'rtasidagi ichki, zaruriy, takrorlanuvchi va barqaror bog'liqlikni ifodalaydigan tushunchadir. Tabiatda, jamiyatda va tafakkurda sodir bo'ladigan o'zgarishlar, harakatlar va rivojlanishlar ma'lum qonuniyatlarga asoslanadi. Har qanday ilmiy izlanishlar, nazariyalar va amaliy faoliyatlar shu qonunlarni bilish va ulardan foydalanishga tayanadi. Falsafada qonunlar ikki asosiy turga bo'linadi:

Umumiy falsafiy qonunlar – bu butun borliqqa, tabiatga, jamiyatga va tafakkurga xos bo'lgan, ya'ni universallik darajasiga ega qonunlardir. Ular dialektik harakatning asosiy tamoyillarini ifodalaydi.

Xususiy qonunlar – ular alohida soha, masalan, fizika, biologiya, iqtisod yoki sotsiologiyaga xos bo'lgan qonunlardir. Bular maxsus fanlar doirasida o'rganiladi.

Falsafiy yondashuv bu qonunlar orasidagi o'zaro bog'liqlikni va ularning umumiy mohiyatini ochib beradi. Har qanday rivojlanish, o'zgarish va taraqqiyot aynan shu qonunlarga asoslanadi.

Falsafaning asosiy qonunlari.

Dialektika — bu rivojlanishni, o'zgarishni va voqelikni qarama-qarshiliklar asosida tushuntiruvchi falsafiy metoddir. Dialektikaga ko'ra, har qanday narsa va hodisa uchta asosiy qonun asosida mavjud bo'ladi va rivojlanadi:

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni.

Bu qonunga ko'ra, har bir narsa va jarayon ichida qarama-qarshi tomonlar mavjud bo'ladi. Ularning o'zaro kurashi o'zgarish va rivojlanishga sabab bo'ladi. Masalan, ijtimoiy hayotda turli sinflar, manfaatlar qarama-qarshiligi orqali jamiyatda ijtimoiy harakatlar sodir bo'ladi.

Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni.

Bu qonun modda va hodisalarda miqdoriy o'zgarishlar to'planib, ma'lum bosqichda sifat jihatdan yangi holatga o'tishini anglatadi. Masalan, suvning isitilishi 100°C ga yetganda, u bug' holatiga o'tadi — bu sifat o'zgarishidir.

Inkorni inkor qonuni.

Bu qonunga ko'ra, har bir rivojlanish jarayoni eski holatning inkor qilinishi, so'ng yangi bosqichda qayta shakllanishi orqali sodir bo'ladi. Bu esa spiral tarzida doimiy takomillashuvni bildiradi. Ushbu uch qonun birgalikda voqelikdagi uzluksiz harakat, ziddiyatlar va taraqqiyotni tushunishga yordam beradi. Ular nafaqat falsafiy tafakkurda, balki ilmiy va ijtimoiy tahlil jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kategoriya tushunchasi va ularning turlari.

Kategoriya — bu borliqni, tafakkurni, ongni anglashda ishlatiladigan eng umumiy falsafiy tushunchalardir. Ular real olamdagi munosabatlar, bog'liqliklar va harakatlarning umumlashtirilgan shaklidir. Falsafiy kategoriyalar bizga murakkab hodisalarni tahlil qilish, taqqoslash va ularga ilmiy yondashish imkonini beradi. Kategoriyalar orqali borliqdagi narsa va jarayonlar mohiyatini anglash, ularni turlarga ajratish, sabab va oqibatni aniqlash mumkin. Falsafiy kategoriyalar quyidagilardan iborat: borliq va yo'qlik, sifat va miqdor, zarurat va tasodif, sabab va oqibat, mazmun va shakl, harakat va rivojlanish va h.k. Fan kategoriyalari esa har bir ilmiy sohaning o'ziga xos tushuncha va tahlil vositalaridir. Masalan, biologiyada — gen, hujayra, turlanish; fizika — energiya, massa, tezlik kabi

tushunchalar fan kategoriyalariga kiradi. Falsafiy kategoriyalar esa ushbu fan tushunchalarini umumlashtirib, ularning nazariy asoslarini mustahkamlab beradi. Rivojlanish falsafasi inson tafakkuri, tabiat va jamiyatdagi harakat va o'zgarishlarni chuqur tushunish imkonini beradi. Qonunlar va kategoriyalar orqali biz voqelikni mantiqiy va tizimli tarzda anglaymiz. Dialektik qonunlar rivojlanishning mohiyatini ochib berar ekan, falsafiy kategoriyalar tafakkurimizni nazariy jihatdan mustahkamlaydi. Bu esa ilm-fan taraqqiyoti, ijtimoiy ongning yuksalishi va dunyoqarashning kengayishiga xizmat qiladi.

Rivojlanish falsafasi qismi bo'yicha mavzuni o'zlashtirishga yordam beruvchi mashqlar



1-MASHQ

JADVALNI MAVZU TAFSILOTLARIGA OID MA'LUMOTLARBIAN TO'LDIRING



METODLARNING TASNIFI

(1.1)

UMUMIY METODLAR	XUSUSIY METODLAR	FANLARARO METODLAR

FALSAFA METODLARI (1.2)

DIALEKTIKA	METAFIZIKA	SINERGETIKA

FALSAFANING QONUNLARI (1.3)

QARAMA - QARSHILIK BIRLIGI VA KURASHI	MIQDOR VA SIFAT O'ZGARISHLARI DIALEKTIKASI	INKORNI-INKOR QONUNI



IJODIY ISH UCHUN TOPSHIRIQ



ESSE UCHUN MAVZULAR

METODLARNING TASNIFI

FALSAFA METODLARI

QONUN TUSHUNCHASI

TESTLAR

1. “Rivojlanish” tushunchasi falsafada qanday izohlanadi ?

- a) Har qanday harakat turi
- b) Oldingi holatga qaytish
- c) Murakkablik va mukammallikka qarab o‘zgarish
- d) Oddiy ko‘rinishdagi o‘zgarish

2. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni nimani tushuntiradi ?

- a) Inson va jamiyat munosabatlarini
- b) O‘zgarishlar tashqi sabablar bilan bog‘liqligini
- c) Harakat va rivojlanishning ichki manbasini
- d) Faqat biologik jarayonlarni

3. “Miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi” qonuni qanday jarayonni anglatadi ?

- a) Harakatni to‘xtatish
- b) Vaqtincha o‘zgarish
- c) Kichik o‘zgarishlar natijasida yangi sifat hosil bo‘lishi
- d) Teskari rivojlanish

4. Quyidagilardan qaysi biri falsafaning asosiy qonunlaridan biri emas?

- a) Miqdordan sifatga o‘tish qonuni
- b) Tabiiy tanlanish qonuni
- c) Qarama-qarshiliklar birligi qonuni
- d) Inkorni inkor qonuni

5. “Inkori inkor qonuni” rivojlanishni qanday tushuntiradi?

- a) Takroriy holatda qolishni
- b) Takroriylik va davomiylik asosida yuksalish
- c) Vaqtincha to‘xtash
- d) Oddiy harakatni

6. Kategoriya tushunchasi nimani anglatadi?

- a) Har qanday falsafiy so‘z
- b) Shaxsiy fikrlar tizimi
- c) Falsafiy umumiy tushunchalar tizimi
- d) Ilmiy uslublar majmui

7. Quyidagilardan qaysi biri falsafiy kategoriya hisoblanadi?

- a) Matematika
- b) Xotira
- c) Sifat
- d) Kompyuter

8. Falsafaning rivojlanish haqidagi yondashuvi qaysi uslubiy tamoyilga asoslanadi?

- a) Elementarizmga
- b) Evolyutsionizmga
- c) Dialektikaga
- d) Subyektivizmga



9. Rivojlanish doim qanday yo‘nalishda sodir bo‘ladi?

- a) Turg‘un holatda
- b) Tasodifiy yo‘nalishda
- c) Ichki ziddiyatlar asosida
- d) Faqat tashqi bosim bilan

10. Dialektikrivojlanishda “sifat o‘zgarishi” deganda nima tushuniladi?

- a) Harakat to‘xtashi
- b) Yangi fazilatlar , holatning paydo bo‘lishi
- c) Avvalgi holatga qaytish
- d) Miqdor kamayishi


6-MAVZU. BILISH FALSAFASI

REJA:

1. Bilishning mazmun va mohiyati.
2. Bilishning bosqichlari. Hissiy va mantiqiy bilish.
3. Falsafada haqiqat muammosi.
4. Bilish metodologiyasi: asosiy tushunchalar.

Tayanch iboralar

Hissiy bilish, ratsional bilish, intuitiv bilish, sezgi, idrok, tasavvur, absolyut haqiqat, nisbiy haqiqat, abstrakt haqiqat, tushuncha.



Insonning o'zini qurshagan dunyoga bo'lgan munosabatlaridan biri — bilishdir. Inson o'z hayoti davomida faqat tashqi dunyoni, ya'ni tabiat va jamiyatnigina bilib qolmasdan, balki o'zini, o'zining ruhiy-ma'naviy dunyosini ham bilib boradi.

Insonning dunyoni bilishini falsafa ham, boshqa hamma aniq fanlar ham o'rganadi. Bunda aniq fanlar dunyoning turli tomonlarini, ularning qonuniyatlarini va xususiyatlarini o'rganadi va ochib beradi. Falsafa esa inson bilishining eng umumiy tomonlarini, qonuniyatlarini va xususiyatlarini o'rganadi va ochib beradi.

Falsafa paydo bo'lgan paytdan boshlab, inson bilishining tabiati va mohiyatini nima tashkil qiladi? uning eng umumiy qonuniyatlari va xususiyatlari nimalardan iborat? degan savollarga javob qidirib va javob berib keldi. Shu sababli, falsafada inson bilishining falsafiy muammolari bilan shug'ullanmagan birorta ham falsafiy oqim, birorta ham faylasuf yo'q. Aksincha, hamma falsafiy oqimlar va falsafiy yo'nalishlar bu sohaga oid o'z qarashlarining ma'lum tizimini ishlab chiqqanlar. Natijada, falsafada inson bilishining tabiati va mohiyati haqida turli xil ta'limotlar, turli xil qarashlar kelib chiqdi.

Bir guruh faylasuflar insondan, uning ongidan tashqari dunyo mavjud emas, dunyo faqat bizning ongimizda, bizning sezgi va idroklarimiz yig'indisi

(kompleksi yoki kombinatsiyalari)dan iborat xolos, binobarin biz o'z sezgi va idroklarimiznigina bilaolamiz, degan fikrlarni bildirishganlari ma'lum.

Boshqa bir guruh faylasuflar esa insonning dunyoni va o'zini bilishga shubha bilan qaraydilar, inson dunyoni to'liq bilolmaydi, deb, inson bilishini cheklaydilar yoki dunyoni bilishni butunlay inkor qiladilar. Skeptitsizm¹ ta'limoti vakillari (*Skeptitsizm* — yunoncha: spsktoman — shubhalanaman) inson bilishining nisbiyligi, uning turli sharoitlar va vaziyatlar bilan bog'liq ekanligini aytishib, hamma e'tirof qiluvchi, isbot talab qilinmaydigan inson bilimlarining bo'lishi mumkinligiga shubhalanadilar.

Dunyoni bilishni qisman yoki butunlay inkor qiluvchi falsafiy ta'limot bo'lgan agnostitsizm vakillari inson dunyoni bilishga qodir emas, degan g'oyani ilgari suradi. Masalan, ingliz faylasufi D.Yum ta'limotiga ko'ra, bilish obyekti, bilimlarimizning manbayi obyektiv borliq emas, balki subyektiv sezgi va idroklarimizdir, biz o'z sezgi va idroklarimiz chegarasidan tashqarida nima borligini bilaolmaymiz.

**Bilish falsafasi qismi bo'yicha mavzuni o'zlashtirishga yordam beruvchi
mashqlar**



1-MASHQ
JADVALNI MAVZU
TAFSILOTLARIGA OID
MA'LUMOTLARBIAN
TO'LDIRING

BILISH SHAKLLARI (1.1)

HISSİY BILISH	RATSIONAL BILISH	INTUITIV BILISH

HISSİY BILISH SHAKLLARI (1.2)

SEZGI	IDROK	TASAVVUR




HAQIQAT (1.3)

ABSOLYUT HAQIQAT	NISBIY HAQIQAT	ABSTRAKT HAQIQAT



2-MASHQ

JADVALNI MAVZU TAFSILOTLARIGA OID MA'LUMOTLAR BILAN TO'LDIRING





IJODIY ISH UCHUN TOPSHIRIQ



ESSE UCHUN MAVZULAR

SKEPTITSIZM VA AGNOSTITSIZM

HISSIY VA EMPIRIK BILISH

**RATSIONAL VA
IRRATSIONAL BILISH**

TESTLAR

1. Bilish falsafasining asosiy obyekti nima?

- a) Jamiyat taraqqiyoti
- b) Bilish jarayoni va uning mohiyati
- c) Moddiy ishlab chiqarish
- d) Axloqiy qadriyatlar

2. Bilish jarayonining asosiy bosqichlari qaysilar?

- a) O'tmish va kelajak
- b) Sezgi va tafakkur
- c) Inson va jamiyat
- d) Ijod va axloq

3. Empirik bilish deganda nima tushuniladi?

- a) Tezkor qarorlar qabul qilish
- b) Mutlaqo fikr yuritmasdan bilish
- c) Tajriba, sezgi orqali bilish
- d) Qurilish texnologiyalarini tushunish

4. Nazariy bilish qanday xususiyatga ega?

- a) Faqat his-tuyg'ularga asoslanadi
- b) Yuzaki tasavvur bilan cheklangan
- c) Tushuncha, mulohaza va xulosalarga tayangan bilish turi
- d) Noaniq tasodifiy bilim

5. Agnostitsizm oqimi nimani e'tirof etadi?

- a) Bilim mutlaq va to'liq bo'lishini
- b) Haqiqatni faqat din orqali bilish mumkinligini
- c) Haqiqatni bilish mumkin emasligini
- d) Har qanday bilim tajriba asosida shakllanishini

6. Bilishning subyekti kim?

- a) Atrof-muhit
- b) Barcha mavjudlik
- c) Bilimni o'rganadigan inson
- d) Jismoniy harakat

7. Bilishning obyekti nima?

- a) Bilimni rad etuvchi shaxs
- b) Faqat moddiy narsalar
- c) Subyektning e'tibor qaratgan narsa yoki hodisasi
- d) Bilimga aloqasi yo'q holatlar

8. Intuitsiya bu —

- a) Aql bilan chuqur tahlil qilish
- b) Tashqi tajriba orqali bilim olish
- c) Bilimning noan'anaviy, tezda anglash shakli
- d) Ilmiy izlanishlar natijasi

9. Bilish nazariyasida “haqiqat” nima?

- a) Shaxsiy qarash
- b) Har qanday fikr
- c) Obyektiv haqiqatga mos bilim
- d) Yolgʻonning qarama-qarshisi

10. Bilishning natijasi nima boʻladi?

- a) Falsafiy muammo
- b) Ilmiy kashfiyotlar
- c) Bilim hosil boʻlishi
- d) Faqat tajriba orttirish


7-MAVZU: JAMIYAT FALSAFASI

REJA:

1. Jamiyat va tarix o'zgaruvchanligining falsafiy jihatlar.
2. Jamiyatning moddiy va ma'naviy asoslari.
3. Oila va etnik birliklar jamiyat tarkibining muhim qismi.
4. Madaniyat jamiyat taraqqiyotining qudratli ma'naviy kuchi.

Tayanch iboralar

Jamiyat, tarix, sotsiologiya, psixologiya, siyosatshunoslik, dinshunoslik, pedagogika, huquqshunoslik, siyosat, jamiyat va tarix falsafasi, jamiyatning moddiy va ma'naviy asoslari.



Jamiyat – bu insonlar o'rtasidagi munosabatlarning yaxlit o'z-o'zini tashkil etuvchi tizim. Jamiyatning asosini insonning muayyan maqsadga muvofiq ravishda atrof-muhitni qayta qurishga yo'naltirilgan faoliyati tashkil etadi. Jamiyat doimo rivojlanuvchi tizim bo'lib, ijtimoiy hayotini harakatga solib turuvchi bosh omil insonning ehtiyojlaridir. Muayyan sharoitda inson ehtiyojlarini qondirishning optimal usullari va vositalari “manfaatlar” deyiladi va ular tarixiy taraqqiyot davomida doimo o'zgarib boradi. Manfaat – individ va ijtimoiy guruhlar faoliyatining asosiy sababidir. Shaxs manfaatlari asosida uning maqsadi shakllanadi. Maqsad inson faoliyati natijasining ideal shakli, faoliyat predmetining subyektiv timsolidir. Inson ehtiyojlari va manfaatlari o'sib borgani sari jamiyat ham rivojlanib boradi.

Faoliyat – insonning o'zini o'rab turgan olamga faol munosabati shakli bo'lib, uning mazmunini maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirish va qayta qurish bilan bog'liq xatti-harakatlar tashkil etadi. Inson faoliyati xilma-xil bo'lib, ularni takror ishlab chiqarishga asoslangan, yani reproduktiv va ijodiy faoliyat, ya'ni produktiv faoliyatga ajratish mumkin. Shu bilan birga, faoliyat subyektning iroda va istaklaridan mustaqil obyektiv-real jarayonlar hamda subyektning iroda va istaklariga bog'liq subyektiv maqsadlar, vazifa, baho va boshqa shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, faoliyat muayyan ijtimoiy obyektlar doirasida insonlar o'rtasida amalga oshadigan munosabatlar tizimi sifatida ham mavjud bo'ladi. Bunda inson faoliyati jamiyatdagi turli sohalar doirasiga qarab ajratiladi.

Jamiyat falsafasi qismi bo'yicha mavzuni o'zlashtirishga yordam beruvchi mashqlar



1-MASHQ

JADVALNI MAVZU TAFSILOTLARIGA OID MA'LUMOTLAR BILAN TO'LDIRING

JAMIYAT HAQIDAGI FANLAR (1.1)

SOTSIOLOGIYA	PSIXOLOGIYA	TARIX	SIYOSATSH UNOSLIK	DINSHUNOSLIK

JAMIYAT HAQIDAGI FANLAR (1.2)

ETIKA	IQTISODIY NAZARIYA	KULTUROLOGIYA	PEDAGOGIKA	HUQUQSHU NOSLIK




JAMIYATNING ASOSIY SOHALARI (1.3)

IQTISODIY SOHA	SIYOSIY SOHA	MA'NAVIY SOHA



2-MASHQ

JADVALNI MAVZU TAFSILOTLARIGA OID MA'LUMOTLAR BILAN TO'LDIRING



..... etnik tarkibning dastlabki ko'rinishi hisoblanadi

..... elatlar birlashuvi natijasida hosil bo'lgan tarixiy-etnik birlik.

..... mamlakat miqyosida jamiyatni uyushtirish masalalarini hal qilish, uning tashqi munosabatlarini belgilash vakolatlari bo'lgan hukmron tuzilma hisoblanadi



IJODIY ISH UCHUN TOPSHIRIQ



ESSE UCHUN MAVZULAR

**MADANIYAT VA
SIVILIZATSIYA**

**JAMIYATNING PAYDO
BO‘LISHI**

DAVLATNING FUNKSIYALARI

TESTLAR

1. Jamiyat nima?

- a) Shaxsning ichki dunyosi
- b) Atrof-muhitdagi tabiiy holat
- c) O'zaro munosabatda bo'lgan odamlar yig'indisi
- d) Faqat iqtisodiy tizim

2. Jamiyatning asosiy birligi nima hisoblanadi?

- a) Ijtimoiy guruh
- b) Sivilizatsiya
- c) Shaxs (inson)
- d) Davlat

3. Jamiyatda sodir bo'ladigan o'zgarishlarga nima sabab bo'ladi?

- a) Faqat tabiat omillari
- b) Tashqi bosimlar
- c) Ichki ijtimoiy omillar va tashqi omillar
- d) Faqat siyosiy qarorlar

4. Jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi nima?

- a) An'analar
- b) Qarama-qarshiliklar kurashi
- c) Boshqaruv tizimi
- d) Iqlim o'zgarishi

5. Jamiyat tuzilmasi necha asosiy sohadan iborat?

- a) 2
- b) 3
- c) 4
- d) 5

6. Falsafada ijtimoiy ong deganda nima tushuniladi?

- a) Jamiyatni boshqarish vositasi
- b) Odamlarning ijtimoiy hayot haqidagi bilim va tushunchalari
- c) Faoliyatning moddiy shakli
- d) Atrof-muhitning tahlili

7. Qaysi faylasuf "jamiyat — ijtimoiy organizmdir" degan fikrni ilgari surgan?

- a) Aristotel
- b) Ibn Sino
- c) Konfutsiy
- d) August Kont

8. Ijtimoiy institut deganda nimani tushunasiz?

- a) Ilmiy markaz
- b) Oliy ta'lim muassasasi
- c) Jamiyatdagi muayyan funksiyani bajaruvchi barqaror tizim
- d) Iqtisodiy rivojlanish darajasi



9. Ijtimoiy rivojlanishning eng yuqori bosqichi nima?

- a) Qoloqlik
- b) Inqiroz
- c) Taraqqiyot
- d) Barqarorlik

10. "Ijtimoiy ziddiyat" atamasi nimani bildiradi?

- a) Nafaqat jamiyatda , balki tabiatda ham mavjud kuch
- b) Turli guruhlar o'rtasidagi qarama-qarshilik va kurash
- c) Tabiiy ofatlar oqibati
- d) Axloqiy inqiroz


8-MAZVU: INSON FALASAFASI (FALSAFIY ANTROPOLOGIYA)

REJA:

1. Inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlari. Ong tushunchasi va uning mohiyati.
2. Ongning kelib chiqishi va rivojlanishi.
3. Yuksak ong — inson bunyodkorlik faoliyatining omili.
4. Sharq va G'arb falsafasida inson muammosi.

Tayanch iboralar

Jon, ong, ongsizlik, bilim, emotsiyalar, tafakkur, o'simlik joni, ijtimoiy ong, inson, aql, inson borlig'i, ong tushunchasi, yuksak ong, inson muammosi.



Insonning kelib chiqishi eng murakkab va jumboqli fenomenlardan biri hisoblanadi. Qadim zamonlardan boshlab ushbu fenomenni tushuntirishda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki paradigma mavjud: insonning xudo tomonidan yaratilganligi g'oyasi va tabiiy tarixiy evolyusiya g'oyasi.

Ibtidoiy *miflarda* odamlarning kelib chiqishi ko'pincha mif qahramonlarning transformatsiyasi, totem ajdodlar, butun mavjudot yaratilgan mifologik davrdagi personajlarning transformatsiyasi natijasi yoki ularning ijod mahsuli sifatida tasavvur etiladi. Ayrim miflarda odamlarning paydo bo'lishi tasodifiy xususiyatga ega bo'lsa, boshqalarida demiurglar – totem ajdodlarning ongli ishi sifatida aks ettiriladi.

Antik falsafa insonga mikrokosm, kosmosning bir qismi, ya'ni makrokosm – umuman dunyo bilan doimiy aloqada bo'lib turuvchi qism sifatida qaragan. Aynan ana shu antik davrda “O'z-o'zingni o'rgan” degan so'zlar aytilgan edi (Suqrot).

Suqrotning shogirdi *Aflotun* (eramizgacha bo'lgan 428-347 yillar) insonning ruhi o'lmaydi, u har gal yangi tanaga ko'chib o'tadi, deb taxmin qilgan edi. Insonning o'zini o'rab turgan atrof dunyoni o'rganishga urinishi – bu ruhning tanga kirgunga qadar mushohada etgan abadiy g'oyalar olami haqidagi xotiralaridir. Aflotun uchun inson ideali - donishmand, faylasuf bo'lib, uning ruhi

ko‘p “sayr qilgan” va shu sababli uning bilimlari eng to‘g‘ri va qimmatlidir. Bunday komil faylasufni Arastu “o‘zini tafakkur etuvchi tafakkur” deb atagan edi.

**Inson falasafasi (falsafiy antropologiya) qismi bo‘yicha mavzuni
o‘zlashtirishga yordam beruvchi mashqlar**



1-MASHQ

JADVALNI MAVZU TAFSILOTLARIGA OID MA’LUMOTLARBIAN TO‘LDIRING

GILOZOIZM TALIMOTI.

(1.1)

HAYOTBAXSH NAFAS O‘SIMLIK JONI	PSYUXE – RUHIY JON	NUS – AQLLI JON

INSON BORLIG‘IDA ONGNING TABIATI (1.2)

ONG	ONGSIZLIK	IJTIMOIIYONG BORLIG‘I




ONGNING STRUKTURASI (1.3)

BILIM	EMOTSIYALAR	TAFAKKUR



2-MASHQ

JADVALNI MAVZU TAFSILOTLARIGA OID MA'LUMOTLAR BILAN TO'LDIRING



.....yondashuv insonning ong, jon, ruhiyat, instinktlar, nuqsonlar, facilatlar kabi muhim xususiyatlarini tahlil etib, uni «ichdan» tushunish, anglab yetishni nazarda tutadi

.....yondashuv- insonga nazar tashlash, uning mohiyatini tahlil qilish go'yoki «sirdan» amalga oshiriladiki, buning natijasida diqqat markazidan uning ijtimoiy va tabiiy mohiyati o'rin oladi.

.....bu individ miyasida uning o'tmishdagi tajribasini mustahkamlash, saqlash va gavdalantirishdan iborat bo'lgan ruhiy jarayon



IJODIY ISH UCHUN TOPSHIRIQ



ESSE UCHUN MAVZULAR

**ONGNING STRUKTURASI VA
FUNKSIYALARI**

**INSONGA NISBATDAN INTROVERTIV VA
EKSTRAVERTIV YONDASHUV**

**INSONGA FAN NUQTAI NAZARIDAN
YONDASHUV**

TESTLAR

1. Falsafiy antropologiyaning asosiy obyekti nima?

- a) Tabiat hodisalari
- b) Ijtimoiy tizimlar
- c) Insonning mohiyati va mavjudligi
- d) Tarixiy jarayonlar

2. “Inson — bu barcha narsalarning mezonidir” degan g‘oya kimga tegishli?

- a) Sokrat
- b) Protagor
- c) Platon
- d) Aristotel

3. Antropologiya atamasi yunon tilida qanday ma’noni bildiradi?

- a) Tarixshunoslik
- b) Tabiatshunoslik
- c) Inson haqida ta’limot
- d) Ruhshunoslik

4. Antropotsentrizm nima?

- a) Tabiatni markazga qo’yish
- b) Xudo markazligini tan olish
- c) Insonni olam markazi deb bilish
- d) Jamiyatni markaz deb qarash

5. Falsafiy antropologiyada “inson mohiyati” tushunchasi nimalarni qamrab oladi?

- a) Faqat biologik xususiyatlar
- b) Faqat ijtimoiy munosabatlar
- c) Biologik, ijtimoiy va ruhiy jihatlar
- d) Faqat tafakkur qobiliyati

6. Falsafiy antropologiya qaysi davrda alohida fan sifatida shakllangan?

- a) Antik davrda
- b) O‘rta asrlarda
- c) Yangi davrda (XVIII–XIX asrlar)
- d) XX asrda

7. Insonning erkinlikka intilishi qaysi faylasuflar ta’limotida asosiy o‘rin tutgan?

- a) Dekart va Nyuton
- b) Kant va Hegel
- c) Konfutsiy va Lao-tsi
- d) Epikur va Zenon

8. Falsafiy antropologiyada "inson – bu ijtimoiy mavjudot" degan g‘oya nimani anglatadi?

- a) Inson mustaqil yashashi mumkinligini
- b) Inson jamiyatga bog‘liq holda rivojlanishini
- c) Inson tabiatdan mustaqilligini
- d) Faqat moddiy ehtiyoj asosida yashashini



9. Kim falsafiy antropologiyani "filosofiyaning asosiy fani" deb atagan?

- a) Shyopengauer
- b) F. Nitsshe
- c) M. Sheller
- d) Dekart

10. Insonning shaxs sifatida shakllanishi uchun asosiy omil nima?

- a) Biologik meros
- b) Tashqi muhit
- c) Tarbiya va ijtimoiy muhit
- d) Ovqatlanish va yashash sharoiti


9-MAZVU: MANTIQ ILMI PREDMETI

REJA:

1. Mantiq fani predmeti, vazifalari va rivojlanish bosqichlari.
2. Tushuncha turlari, munosabatlari va mantiqiy amallari.
3. Hukm va xulosa – tafakkur shakli sifatida.
4. Dalillashning mantiqiy asoslari. Muammo. Faraz. Nazariya.

Tayanch iboralar

Fikr, soʻz, aql, qonuniyat, taʼlimot, mantiq, aqliy mushohada, tushuncha, mulohaza, xulosa, tushuncha turlari, mantiqiy amallar, tafakkur shakli, dalillashning mantiqiy asoslari, muammo, faraz, nazariya.



Kelib chiqishiga koʻra arabcha boʻlgan “mantiq” (grekcha logos) atamasi “fikr”, “soʻz”, “aql”, “qonuniyat”, “talimot” kabi maʼnolarga ega. Biz koʻrib chiqayotgan munosabatda u tafakkur shakllari va qonunlari toʻgʻrisidagi taʼlimotni ifodalaydi hamda falsafaning gnoseologiya, metodologiya boʻlimlari bilan uzviy bogʻliq boʻlgan qismini tashkil etadi. “Mantiq” soʻzini ilk bor Demokrit “Mantiq haqida yoki Kanon” asarida ishlatgan. Lekin bu terminning doimiy qoʻllanishi ellin faylasuflari, platonchilar, peripatetiklar va ayniqsa, stoiklar ijodi bilan bogʻliq. Stoiklar grammatikani (sintaksisni) va falsafiy mushohada tilini mantiqning tarkibiga kiritdilar hamda ritorika va dialektikani mantiq bilan uzviy bogʻliq ilm turlari sifatida ajratdilar. Xususan, “Ritorika deb – yaxshi muhokama qilishni, dialektika deb esa, savol-javoblar orqali vujudga keladigan tortishuvlar qoidalari haqidagi fanni tushundilar”.

Mantiq ilmining oʻrganish obyektni tafakkur tashkil etadi. “Tafakkur” ham arabcha soʻz boʻlib, oʻzbek tilida “aqliy mushohada”, “fikrlash” soʻzlarining sinonimi sifatida qoʻllaniladi. Tafakkur bilishning samarali vositasidir. Tafakkurning mantiq tadqiqot obyekti va predmeti sifatidagi oʻziga xosligi uning bir qancha muhim xususiyatlarida namoyon boʻladi:

Tafakkurda voqelik abstraktlashgan va umumlashgan holda in'ikos qilinadi. Hissiy bilishdan farqli o'laroq, tafakkur bizga predmetning nomuhim, ikkinchi darajali (bu odatda bilish oldida turgan vazifa bilan belgilanadi) belgilaridan abstraktlashgan (fikran chetlashgan, mavhumlashgan) holda, uni umumiy, muhim, turg'un xususiyatlari, munosabatlari orqali bilishimiz, tavsiflashimizga imkon beradi.

Mantiq ilmi predmeti qismi bo'yicha mavzuni o'zlashtirishga yordam beruvchi mashqlar



1-MASHQ

JADVALNI MAVZU TAFSILOTLARIGA OID MA'LUMOTLARBIAN TO'LDIRING

TAFAKKUR SHAKLLARI (1.1)

TUSHUNCHA	MULOHAZA	XULOSA

TAFAKKUR QONUNLARI (1.2)

AYNIYAT QONUNI	NOZIDLIK QONUNI	UCHINCHISI ISTISNO QONUNI	YETARLI ASOS QONUNI



MANTIQ FANINING YO‘NALISHLARI (1.3)

FORMAL MANTIQ	MATEMATIK MANTIQ	DIALEKTIK MANTIQ



2-MASHQ

JADVALNI MAVZU TAFSILOTLARIGA OID MA'LUMOTLAR BILAN TO'LDIRING





IJODIY ISH UCHUN TOPSHIRIQ



ESSE UCHUN MAVZULAR

**Tafakkur qonunlarining tanqidiy
mushoxoda yuritishni
shakillantirishdagi ahamiyati**

Mantiq fanining asosiy yoʻnalishlari

**Tushuncha, hukm, xulosa chiqarish
tafakkur shakli sifatida**

TESTLAR

1. Mantiq ilmi nimani o'rganadi?

- a) Aql va tafakkur tarixi
- b) Falsafiy tushunchalarni
- c) To'g'ri fikrlash qonuniyatlarini
- d) Ruhiy holatlarni

2. Mantiq atamasi qaysi tildan olingan?

- a) Lotincha
- b) Arabcha
- c) Yunoncha
- d) Forscha

3. "Mantiq" so'zining asl ma'nosi nima?

- a) So'zlash
- b) Fikrlash, nutq
- c) Bahs-munozara
- d) Bilim

4. Quyidagilardan qaysi biri mantiqiy fikrlash shakli hisoblanadi?

- a) Baholash
- b) Solishtirish
- c) Xulosa chiqarish
- d) His qilish

5. Mantiq ilmining asosiy vazifasi nima?

- a) Inson axloqini o'rganish
- b) To'g'ri fikrlash va xulosa chiqarishga o'rgatish
- c) Ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish
- d) Ruhiy holatni tushuntirish

6. Arastu mantiqni qanday nomlagan?

- a) "Nutq san'ati"
- b) "Falsafaning onasi"
- c) "Organon" (asbob)
- d) "Dialektika"

7. Mantiqiy shakllar necha turga bo'linadi?

- a) 2
- b) 3
- c) 4
- d) 5

8. Tushuncha nima?

- a) Obraz
- b) Ob'ektning xususiy belgisini ifodalovchi fikr
- c) Ob'ekt haqidagi umumiy va zaruriy belgilarning aks etishi
- d) Qisqacha izoh



9. Mantiqiy xulosa chiqarishda asosiy vosita nima?

- a) Til
- b) His-tuyg‘u
- c) Tafakkur
- d) Dalil va isbot

10. Quyidagilardan qaysi biri mantiqiy hukm bo‘la oladi?

- a) Kitob katta
- b) Qizil rang chiroyli
- c) Yer Quyosh atrofida aylanadi
- d) O‘simliklar yashil

10-MAZVU: ETIKA

REJA:

1. Etika fani predmeti, asosiy tushuncha, tamoyil va me'yorlari hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati.
2. Estetikaning predmeti, vazifalari, asosiy tushunchalari.
3. Badiiy ijod jarayoni va estetik tarbiya.

Tayanch iboralar

Axloqshunoslik, etika, axloq, xulq, odob, falsafa, noosfera, etosfera, biosfera, estetika, estetik tarbiya, badiiy ijod.



Axloqshunoslik bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan qadimiy fan. U bizda “Ilmi ravish”, “Ilmi axloq”, “Odobnoma” singari nomlar bilan atab kelingan. Ovro'pada esa “Etika” nomi bilan mashhur bo'lib, biz ham yaqin-yaqingacha shu atamani qo'llar edik. U dastlab manzildoshlik, yashash joyi, keyinchalik esa odat, fe'l, fikrlash tarzi singari ma'nolarni anglatgan; yunoncha “ethos” so'zidan olingan.

Uni birinchi bo'lib yunon faylasufi Arastu ilmiy muomalaga kiritgan. Arastu fanlarni tasnif qilarkan, ularni uch guruhga bo'ladi: nazariy, amaliy va ijodiy. Birinchi guruhga falsafa, matematika va fizikani; ikkinchi guruhga etika va siyosatni; uchinchi guruhga esa san'at, hunarmandchilik va amaliy fanlarni kiritadi. Shunday qilib, qadimgi yunonlar axloq haqidagi ta'limotni fan darajasiga ko'targanlar va “Etika” deb ataganlar.

Biroq bizda milliy-mintaqaviy, axloqiy qadriyatlarimizning, dastlabki axloqiy g'oyalarning vujudga kelishi qadimgi yunonlar yashagan davrdan o'nlab asrlar avval ro'y bergan. Ajdodlarimizning eng ko'hna e'tiqodiy-axloqiy kitobi — “Avesto” buning yorqin dalilidir. Shu sababli endilikda bu fanni ham ilmiy-tarixiy, ham zamonaviy-hayotiy talablar nuqtayi-nazaridan “Axloqshunoslik” deb atashni maqsadga muvofiq deb bildik.

Insoniyatning taraqqiyoti ta'lim va ilm-fanning yuqori darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Estetik tafakkur taraqqiyotining tarixi, nazariyasi va amaliy jihatlarini shakllanish, ularni samarali ta'lim tizimiga oqilona tadbiq etish bugungi kunda davr talabiga aylanib bormoqda, chunki kishida estetik faoliyat paydo bo'lishi bilan asta-sekin go'zallik, nafosat, ulug'vorlik, uyg'unlik kabi ijobiy fazilatlar yuzaga keladi va estetik faoliyat davomida inson go'zallik va nafosat qonuniyatlarini yaratadi, o'zlashtiradi va ularga amal qila boshlaydi.

Etika qismi bo'yicha mavzuni o'zlashtirishga yordam beruvchi mashqlar



1-MASHQ

JADVALNI MAVZU TAFSILOTLARIGA OID MA'LUMOTLARBIAN TO'LDIRING

AXLOQSHUNOSLIK (1.1)

ODOB	XULQ	AXLOQ

AXLOQSHUNOSLIKNING BOSHQA IJTIMOIIY FANLAR BILAN ALOQADORLIGI (1.2)

Axloqshunoslik va estetika	Axloqshunoslik va dinshunoslik	Axloqshunoslik va huquqshunoslik	Axloqshunoslik va ekologiya

**AXLOQSHUNOSLIKNING BOSHQA IJTIMOIIY
FANLAR BILANALOQADORLIGI
(1.3)**

Axloqshunoslik va pedagogika	Axloqshunoslik va psixalogiya	Axloqshunoslik va sotsiologiya	Axloqshunoslikva siyosatshunoslik

2-MASHQ

JADVALNI MAVZU TAFSILOTLARIGA OID MA'LUMOTLAR BILAN TO'LDIRING

..... inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

..... oila, jamoa, mahalla-ko'y miqyosida ahamiyatli bo'lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.

..... jamiyat, zamon, ba'zan insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan umumbashariy ahamiyatga ega ijobiy xatti-harakatlar yig'indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa.



IJODIY ISH UCHUN TOPSHIRIQ



ESSE UCHUN MAVZULAR

**Axloqshunoslikning boshqa ijtimoiy
fanlar bilan aloqadorligi**

**Qadimgi Sharqdagi dastlabki axloqiy
g'oyalar**

**Hindi-Xitoy mintaqasidagi axloqiy
ta'limotlar**

TESTLAR

1. Axloqshunoslik fani nimani o'rganadi?

- a) Tabiiy fanlarni
- b) Axloqiy qadriyatlar va odob me'yorlarini
- c) Siyosiy tizimlarni
- d) Til va nutqni

2. "Axloq" tushunchasi yunon tilidagi qaysi so'zdan kelib chiqqan?

- a) Logos
- b) Ethos
- c) Pathos
- d) Polis

3. "Oltin qoida" deb ataluvchi axloqiy prinsipning mazmuni qanday?

- a) Qonunga itoat et
- b) O'zga odamga u senga nima qilishini istasang, shuni qil
- c) O'z manfaatingni birinchi o'ringa qo'y
- d) Haqiqatni yashirish mumkin

4. Axloqiy ongning asosiy shakllaridan biri bu —

- a) San'at
- b) Ilm-fan
- c) Axloqiy burch
- d) Texnologiya

5. Antik davrda axloqiy fazilatlar haqida ta'lim bergan faylasuflardan biri kim?

- a) Dekart
- b) Konfutsiy
- c) Sokrat
- d) Nyuton

6. Utilitarizm oqimining asosiy g'oyasi nimaga asoslanadi?

- a) Ruh va tana uyg'unligiga
- b) Oliy irodaga
- c) Eng ko'p odamga eng ko'p foyda yetkazishga
- d) Atrof-muhitni asrashga

7. Axloq va huquq orasidagi asosiy farq nimada?

- a) Axloq faqat jamiyatga tegishli
- b) Huquq majburiy, axloq esa ixtiyoriy
- c) Axloq faqat davlat qonuni
- d) Farqi yo'q

8. Qaysi oqim axloqiy qadriyatlarni nisbiy deb hisoblaydi?

- a) Dogmatizm
- b) Relativizm
- c) Absolyutizm
- d) Determinizm



9. Kantning axloqiy falsafasiga ko‘ra, inson qanday harakat qilishi kerak?

- a) Foydali bo‘lsa yetarli
- b) Boshqalarga yoqsa bas
- c) Burch asosida harakat qilishi kerak
- d) Tez foyda bersa bo‘ldi

10. Axloqiy qadriyatlarga misol bo‘la oladi:

- a) Tezlik
- b) Ob-havo
- c) Vijdon
- d) Narx-navolar

Nazorat savollari

Falsafa fanining predmeti va jamiyatdagi roli.

Gnoseologiya va epistemologiyaning mazmuni va mohiyati.

Tafakkur-mantiq fanini o'rganish obyekti.

Borliq tushunchasining falsafiy mohiyati.

“Tafakkur shakli” (strukturasi) va “tafakkur qonuni” tushunchalari.

Falsafada borliq muammosi va uning mohiyati.

Formal mantiqning predmeti va strukturasi.

Falsafaning kelib chiqishi va shakllanishining asosiy bosqichlari.

Bilishning asosiy turlari va shakllari.

Mulohaza (xukm)ning mantiqiy tahlili.

Dunyoqarash tushunchasi. Mifologik dunyoqarash.

Oddiy xukmning turlari.

Inson borlig'ining mazmun mohiyati.

Moddiy borliq va uning shakllari.

Ma'naviy borliq: Individuallashgan va obyektivlashgan ma'naviy borliq.

Tabiiy borliq yoki tabiat borlig'i.

Dunyoqarash tushunchasi. Dunyoqarashning tarixiy shakllari.

Noilmiy bilish shakllari.

Murakkab mulohazalar va ularning turlari.

Mif dastlabki dunyoqarash shakli sifatida.

Mifologik va diniy dunyoqarashning o'zaro aloqasi va farqi.

Bilishda subyekt va obyektning o'zaro aloqasi.

Murakkab mulohazalarning chin bo'lish shartlari.

Diniy dunyoqarashning shakllanishi va mohiyati.

Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv bilish darajalari, ularning o'ziga xosligi va aloqadorligi.

Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi: tuzilishi, turlari va umumiy qoidalari.

Dunyoni idrok etishda falsafiy dunyoqarashning o'ziga xos roli.

Ong - tafakkur va borliqning birligi. Tafakkur uslubining asosiy jihatlari.

Fikrning harakat yoʻnalishiga koʻra xulosa chiqarish: deduksiya, induksiya va analogiya; ularning oʻzaro aloqadorligi.

Fan - ilmiy dunyoqarash shakli. Fanning funksiyalari va taraqqiyotining asosiy bosqichlari.

Formal mantiqning hozirgi ilmiy bilimlar sistemasida tutgan oʻrni va ahamiyati.

Toʻgʻri muhokama yuritishning asosiy prinsiplari: fikrning aniq maʼnoga ega boʻlishi, izchiligi va yetarli darajada asoslanishi.

Ayniyat qonuni va fikrning aniqligi.

Deduktiv xulosa chiqarish.

Falsafa va fanning oʻzaro mutanosibligi va farqi.

Bilishda xaqiqat va amaliyot uygʻunligi. Xaqiqatning asosiy shakllari va konsepsiyalari.

Induktiv xulosa chiqarish.

Falsafa fanining predmeti, funksiyalari.

Xaqiqatni anglashda isbotlash va rad etish. Amaliyotning tarkibiy qismlari.

Analogiya orqali xulosa chiqarish.

Falsafada milliylik va umuminsoniylik.

Emotsiya, ideal, iroda, ishonch va shubhaning bilishdagi roli.

Murakkab mulohazalardan xulosa chiqarish.

Xozirgi davrda milliy falsafani rivojlantirish muammolari, uning xalqaro aloqalarni tashkil etishdagi ahamiyati.

Falsafada metod va metodologiya, metodika tushunchalari.

Fikr yuritishda mulohazalarni koʻrish va xulosa chiqarish bilan bogʻlik xatolar.

Falsafiy tafakkur taraqqiyotida Sharq falsafasining oʻrni.

Metodlarning tasnifi.

Argumentlash va asosli muxokama yuritish shartlari.

Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi.

Qadimgi sharqda asotiriy tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo boʻlishi. Misr va Bobil falsafiy maktablari.

Falsafa metodlari.

Isbotlash va rad etishning umumiy tavsifi.

Qadimgi Xindistonda falsafiy maktablar.

Fan metodlari: umumilmiy, xususiy ilmiy va fanlararo tadqiqot metodlari.

Isbotlash va rad etishning turlari.

Markaziy Osiyoda “Avesto” ta’limotidagi falsafiy fikrlar.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlarining o‘ziga xos xususiyatlari.

Fikrni asoslashda uchraydigan xatolar.

Qadimgi Xitoydagi falsafiy maktablar. Konfutsiy va Lao Szi ta’limoti.

Xozirgi zamon metodologiyasi.

Paralogizm. Sofizm. Paradoks.

Nozidlik va uchinchisi mustasno qonunlari izchil fikr yuritishning asosi sifatida.

Yetarli asos qonuni va muhokamaning ishonchliligi.

Glossariy

Absolyut haqiqat – bu bilish obykti haqidagi inkor etib bo‘lmaydigan to‘liq va tugal bilimdir.

Agnostitsizm – bu shunday ta‘limotki, unga ko‘ra dunyo haqida haqiqiy, ishonchli bilimlarga erishib bo‘lmaydi.

Agnostitsizm - Xudo to‘g‘risida va umuman reallikning har qanday chegarasiga yetgan va mutlaq asoslarini bilish mumkin emasligini ifodalaydigan konsepsiya.

Aksioma – isbot qilinmaydigan va ayni paytda, isbotlashga zaruriyat bo‘lmagan boshlang‘ich asos.

Aktual borliq - borliqning ayni paytda va shu joydagi voqelikda namoyon bo‘lib turgan va shu voqelik bilan aloqadorlikdagi qismi.

Apriori (bilim) lug‘av.- avvalgidan. Tajribadan mustaqil ravishda olingan, ongda avvaldan mavjud bilimni ifodalaydi. Hissiyot va aql shakllari tajribadan sezgilar yordamida olingan tartibsiz bilimni tashkillashtiradi, ularga aloqadorlik va tartib baxsh etadi. Hozirgi fan metodologiyasida fanning boshlang‘ich postulatlarini bilimning aprior shakliga taalluqli deb hisoblanadi, garchi ularni tanlashda shartlilik va konvensiallik holatlari bo‘lsa-da.

Atom – barcha mavjudotlar, shu jumladan, jonni tashkil etadigan matriyaning mayda zarralari (Demokrit). Dalton atom tushunchasini ximiyaga kiritdi va bu mazkur fan uchun nihoyatda mahsuldor bo‘ldi.

Avtomatizmlar – bu avval ong nazorati ostida paydo bo‘lib, uzoq mashq qilish va ko‘p karra takrorlash natijasida ongsiz harakatlar xususiyatini kasb etuvchi insonning murakkab harakatlari.

Axloq — jamiyat, zamon, ba‘zan insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan umumbashariy ahamiyatga ega ijobiy xatti-harakatlar yig‘indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma‘naviy hodisa.

Bilish jarayoni – to‘laligicha ratsional, faqat aqlga bo‘ysunuvchi, formal, quruq jarayon emas, chunki u tirik kishilar tomonidan amalga oshiriladi, shu sababli bilish emotsional elementlarni – iroda, niyat, istaklarni o‘z ichiga oladi.

Borliq - ilgari mavjud bo'lgan, hozir mavjud va kelajakda ham mavjud bo'ladigan obyektiv va subyektiv reallikni o'ziga qamrab oladi.

Braxman – borliqning mutlaq boshlang'ich asosi va barcha dunyoviy fenomenlarning chuqur mazmuni.

Daosizm – Dao yoki “narsalar yo'li” to'g'risidagi ta'limot. Faqat hayotning tabiiy qonunlariga (daoga) rioya qilish insonni “o'z tabiatini yaxlitlikda saqlashga” olib keladi. Faqat mana shu asosdagina haqiqatga erishish va donolikni egallash mumkin bo'ladi.

Daosizm - eramizdan oldingi IV-III asrlarda Xitoyda paydo bo'lgan yarim falsafiy, yarim diniy, sinkretik ta'limot.

Daosizm so'zining o'zi “dao” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “yo'l”, “taraqqiyot”, “dunyo negizi” degan ma'noni bildiradi.

Davlat – mamlakat miqyosida jamiyatni uyushtirish masalalarini hal qilish, uning tashqi munosabatlarini belgilash vakolatlari bo'lgan hukmron tuzilma hisoblanadi.

Deduksiya – juziyni umumiydan keltirib chiqarish; tafakkurning umumiydan juziyga, umumiy mulohazadan xususiy mulohazaga olib boradigan yo'li. Masalan, “Barcha insonlar o'limga mahkum”, “Suqrot - inson”, demak, “Suqrot o'limga mahkum”.

Deizm – bu e'tiqodning negizida Xudo garchi u dunyoda uning birinchi sababchisi sifatida mavjud bo'lsada, yaratilishdan keyin olamning harakati uning ishtirokisiz sodir bo'ladi deguvchi tushuncha.

Determinizm – olamda sodir bo'layotgan barcha jarayonlar, shu jumladan, inson hayoti jarayonlarining, Xudo tomonidan dastlab belgilanishi (teologik determinizm yoki taqdirning avvaldan belgilanishi) yoki faqat tabiiy hodisalar tomonidan taqozalanishi (kosmologik determinizm) yoki insonning maxsus irodasi ila belgilab berilishi (antropologik-axloqiy determinizm) to'g'risidagi ta'limot bo'lib, u inson erkinligi, mas'uliyati uchun o'rin qoldirmaydi.

Dialektika – falsafiy metod, argumentlash san'ati, mantiq fani.

Diniy dunyoqarash - tabiiy va ijtimoiy hodisalar mohiyatini xudoning qudrati bilan tushuntiradi. U hamma narsada va har qayerda ilohiy kuchlarning ta'siri, mo'jizaviy kuchi bor deb uqtiradi.

Dunyoqarash - insonni o'rab turgan dunyo va uning unda tutgan o'rniga nisbatan qarashlar majmuidir.

Ekstravertiv yondashuv- insonga nazar tashlash, uning mohiyatini tahlil qilish go'yoki "sirtidan" amalga oshiriladiki, buning natijasida diqqat markazidan uning ijtimoiy va tabiiy mohiyati o'rin oladi; tegishli mo'ljallarga muvofiq insonning Xudo, kosmos, universum va shu kabilar bilan aloqasi tahlil qilinadi.

Ekstremizm - tushunchasi muayyan sharoitda, biron-bir g'oya yoki tamoyilga qat'iy ishonch va uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni, boshqa sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko'r-ko'rona qo'llashga urinishdir.

Empirizm (grekchadan empeiria - tajriba) – bilish nazariyasidagi yo'nalish bo'lib, unga muvofiq hissiy tajriba bilimlar manbai va barcha bilimlar tajribaga tayanadi.

Epistemologiya (grekchadan episteme – bilim, logos – ta'limot) falsafiy-metodologik fan bo'lib, unda bilim, uning qurilishi, tarkibi, mavjudligi va rivoji tadqiq etiladi.

Evdemonizm (Aristotelcha eudamohia – huzur-halovat, baxt-saodat) – etikadagi huzur-halovat, baxt-saodatni insonning barcha intilishlarining motivi va maqsadi sifatida talqin etuvchi yo'nalish.

Falsafiy dunyoqarash - narsa va hodisalarni inson ongida yaxlit aks ettirish bilan bir qatorda, u kishilarning tafakkurlash madaniyatini, ichki ma'naviy dunyosini shakllantiradi va boyitadi.

Gedonizm — lazzatlanish

Gnoseologiya- subyekt bilish faoliyatining prinsiplari, qonuniyatlari, shakllari, bosqichlari va darajalarini, shuningdek, shu prinsip va qonunlardan kelib chiqadigan, haqiqiy bilimga erishilishini ta'minlaydigan talablar va mezonlarni o'rganadi.

Idealizm – haqiqiy ideallar va ularning amaliy natijalari, fidokorlik harakatlari bilan belgilanadigan har qanday dunyoqarash yoki turmush tarzi.

Induizm – Hindiston hududida shakllangan va aholisining asosiy qismi e'tiqod qiladigan dinlar guruhining to'plovchi nomi.

Internet – inson tafakkuri, aqli va bilimi qudratining mahsuli bo'lib, bugungi kunda butun dunyoni qamrab olgan global kompyuter tarmog'idir.

Introvertiv yondashuv -insonning ong, jon, ruhiyat, instinktlar, nuqsonlar, fazilatlar kabi muhim xususiyatlarini tahlil etib, uni “ichdan” tushunish, anglab yetishni nazarda tutadi.

Jaynizm – Hindistonda er.avv. V - asrda vujudga kelgan, asoschisi Jina Maxavira Vardxaman bo'lgan qadimgi diniy-falsafiy ta'limotlardan biri.

Jon – Xudo tomonidan berilgan o'lmas, ma'naviy, jisimsiz va tanadan mustaqil inson mohiyati (tabiati), uning “egizagi”, tanada mavjud bo'lgani holda inson shaxsi va individual qobiliyatlarini belgilab beruvchi, ketayotganda – o'lim olib keladigan, o'zi esa narigi dunyoga mangu hayot uchun yoki boshqa mavjudotlarga ko'chib o'tadigan faol boshlang'ich asos.

Karma – individ sodir qilgan harakatning uning keyingi hayotiga va kelajakdagi tug'ilishiga ta'sir o'tkazishi.

Katarsis (Aristotel) - emotsional yengillashish; jonning jismiy, hissiy iflosliklardan mistik tozalanishi.

Kategoriya “izohlash”, “tushuntirish”, “ko'rsatish”, degan ma'nolarni anglatadi.

Konvensionalizm (lotincha konvensio – shartnoma, kelishuv, bitim) – bu falsafiy ta'limot bo'lib, unga ko'ra ilmiy nazariyalar va tushunchalar tashqi dunyoning, uning tomonlari va xossalarning real tafsifi emas, balki olimlar o'rtasidagi kelishuv mahsulidir.

Logos (grekcha logos) – tushuncha, so'z va ma'no birligini qayd etuvchi falsafiy termin.

Materializm – borliqning barcha shakllari asosi va substansiyasini boshlang'ich moddiyatda, materiyada deb biladigan falsafiy yo'nalish,

dunyoqarash hamda inson bilishi, o'z-o'zini bilishi va amaliyoti ideallari, normalari va qadriyatlari yalpi to'plami.

Metafizika – har qanday borliq yoki olamning mohiyati haqidagi ta'limot. Biroq u antik davr falsafasida ikki ma'noda: mavjudot va predmetning ichki mohiyati (ya'ni, "mavjudot tabiati") ma'nolarida ishlatilgan.

Metod - tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot.

Metodika – bilish obyektni o'rganishga yondoshuvda, nazariy va metodologik manbalarni qo'llashdagi amaliy taktik jarayon.

Metodika – bilish obyektni o'rganishga yondoshuvda, nazariy va metodologik manbalarni qo'llashdagi amaliy taktik jarayon.

Mifalogiya - ijtimoiy taraqqiyotning eng boshlang'ich davriga xos bo'lgan xalq og'zaki ijodi - naql va afsonalarda gavdalantirilgan ijtimoiy ongning asosiy shaklidir.

Millat – elatlar birlashuvi natijasida hosil bo'lgan tarixiy-etnik birlik.

Monizm – falsafiy bilimning unda bitta asosiy prinsip bo'lishi bilan belgilanadigan tashkillashuv shakli bo'lib, bu prinsipga muvofiq ravishda falsafiy sistema mazmunan to'ldiriladi.

Monoteizm – personlashgan yagona xudo to'g'risidagi ta'limot.

Nisbiy haqiqat – bilish predmeti to'g'risidagi noto'liq va notug'al bilimdir.

Odob — inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

Ontologiya – borliq haqidagi ta'limot: mumtoz falsafada falsafiy sistemaning tayanch komponenti sifatida yuzaga chiquvchi ta'limot.

Plyuralizm – birorta yagona asosga keltirilmaydigan, bir-biridan mustaqil manfaatlar, borliq turlari, g'oyalar, qarashlar, sotsial institutlar to'plami mavjudligini e'tirof etuvchi falsafiy dunyoqarash shakli.

Politeizm – ko'pxudolik, birqancha yoki ko'p xudolarga sig'inish.

Qonun - olamdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bog‘lanishlari, aloqalari va munosabatlarining namoyon bo‘lishidir.

Ratsionalizm – gnoseologiya va prakseologiyada inson aqlining bilishda ham, hissiy bilish shakllariga bo‘lgan munosabatida ham ustuvorligini e‘tirof etuvchi yo‘nalish.

Shakl – avvalambor predmetning tashqi konturi, sirtqi ko‘rinishi, muayyan mazmunning tashqi ifodasi hamda predmetning “amorf” materiali (material) mazmuni yoki uni tashkil etuvchisidan farqli o‘laroq, predmet tartibini yoki jarayonlarning kechishi tartibini belgilaydigan ichki tuzilishi va strukturasi.

Sistema – grekcha so‘z bo‘lib, mantiqiy ma‘nosi butunlik, yaxlitlik, elementlardan tashkil topgan birikma, degan ma‘nolarni anglatadi.

Skeptitsizm (grekchadan skpticos – ko‘rib chiqadigan, tadqiq etadigan) – shubhani tafakkur, ayniqsa haqiqatning ishonchliligi prinsipi sifatida asoslovchi falsafiy yo‘nalish.

Substansiya - borliq, tabiat, jamiyat, inson va dunyodagi barcha narsa va xodisalarning asosida yotuvchi moddiy yoki ruhiy mohiyat.

Terrorizm tushunchasining o‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, “terror” - qo‘rquv, dahshat demakdir.

Tushuncha – bu tajriba ma‘lumotlarini umumlashtirish natijasidir.

Tushuncha – predmet va hodisalarni ularning umumiy, muhim belgilari orqali aks ettiruvchi tafakkur shaklidir.

Urug‘ – etnik tarkibning dastlabki ko‘rinishi hisoblanadi.

Veda deb ataladigan muqaddas kitobining “ma‘nosi bilmagan narsani bilishdir”.

Xotira – bu individ miyasida uning o‘tmishdagi tajribasini mustahkamlash, saqlash va gavdalantirishdan iborat bo‘lgan ruhiy jarayon.

Xulq – oila, jamoa, mahalla-ko‘y miqyosida ahamiyatli bo‘lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Madaeva va boshq. Falsafa. -Toshkent: O‘zMU nashiryoti, 2019.
2. Q.Nazarov [va boshq.]. Falsafa asoslari [Matn]: o‘quv qo‘llanma / - Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. - 380 b.
3. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida.-Toshkent: UFMJ, 2006.
4. Izzetova E., Po‘latova D. Filosofiya. -Toshkent: Sharqshunoslik, 2012. 340-b
5. Sharipov M., Fayzixo‘jaeva D. Mantiq tarixi va nazariyasi darslik - T.:Universitet, 2020
6. Abdulla Sher. Estetika. Darslik. -Toshkent. O‘zbekiston, 2016.
7. Abdulla Sher. Ahloqshunoslik. Darslik. -Toshkent. UFMJ, 2010.
8. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent. Yangi asr avlodi, 2016.-318 b.
9. A.Fitrat. Tanlangan asarlar -T.: Ma’naviyat, 2010 -301 b.
10. J. Rumi. Ichindagi ichindadur.-T.: Yangi asr avlodi, 2016.-272 b.
11. Guseynov A.A., Apresyan R.G. Etika. Uchebnik. - Moskva. Gardariki, 2013.
12. Yoqubova M. Fan axborotlashuvining jamiyat rivojidadagi o‘rni. - Toshkent. “Star – Poligraf”, 2010. -180 b.
13. Krivsun O.A. Estetika. Uchebnik-M.: Gardariki, 2013
14. Qaxxorova Sh. Global ma’naviyat-globallashuvning g‘oyaviy asosi.- Toshkent. Tafakkur, 2009. - 670 b.
15. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. - Toshkent. Falsafa va huquq, 2007.